



SOLIQ TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Bank-moliya akademiyasi magistranti
Zoyirov O'tkir O'ktam o'g'li
Zoyirov_o'@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'i, uning respublikamiz va xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi o'mni, rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiyotni raqobatbardoshligiga ta'siri, mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zarurligi ilmiy-nazariy adabiyotlarni sharhlash va xalqaro tajribani tahlil qilish orqali yoritilgan. QQS da soliqqa tortishning ijtimoiy funksiyasi ishlashi uchun birinchi darajali (ijtimoiy xarakterli) tovar va xizmatlar narxlariga QQS stavkasi pasaytirilishining ta'siri va asoslari. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qiymat, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, iste'molchi, hisob varaq-faktura, hisobot davri, qo'shilgan qiymat solig'i.

Annotation: This article presents the value-added tax, its role in the tax system of our republic and foreign countries, stages of development. The impact, essence, socio-economic necessity of value-added tax on the competitiveness of the economy is covered by the interpretation of scientific and theoretical literature and the analysis of international experience. The effect and grounds for reducing the VAT rate on prices of goods and services of the first level (social nature) for the functioning of the social function of taxation in VAT. It follows that proposals have been developed on the criteria for categorizing business entities.chiligi, soliq stavkasi.

Keywords: value, indirect taxes, value added tax, Consumer, account sheet-invoice, reporting period, Value Added Tax.

Kirish

Iqtisodiyotda raqamlı texnologiyalar qo'llashni jadal rivojlantirish davrida mamlakatimizda ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatdoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish



orgali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi. Shuningdek, davlatimizda erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'gom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni Konstitutsiyamizda alohida o'rinnegallashi bo'yicha strategik xarakatlar amalga oshirilmoqda.

O‘zining tabiatiga ko‘ra, qo‘shilgan qiymat solig‘i murakkab, ko‘p omilli, ko‘p qirrali bo‘lib, uning muammolari zamonaviy moddiy hayotning deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning(2023) mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida biz tadbirkorlarga soliq yukini ko‘paytirish emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish hisobidan byudjetga tushumlarni oshirish yo‘lidan boryapmiz. O‘tkazilgan so‘rovlarda 62 foiz tadbirkorlarimiz soliq sohasidagi islohotlarimizni ijobiy baholagan.

Mamlakatimizda qo'shimcha qiymat solig'ining summasi yildan yilga oshib bormoqda. Uch yil davomida mahalliy mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet daromadlari bir yarim baravar oshdidi – 2020-yildagi 20,5 trillion so'mdan (2,1 milliard dollar) 2022-yilda 32,8 trillion so'mgacha (3,0 milliard dollar). Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i shu davrda deyarli ikki baravarga o'sdi – 19,7 trillion so'mdan 38,7 trillion so'mgacha. O'tgan yili QQS daromadlari davlat byudjeti daromadlarining uchdan bir qismini ta'minladi. 2022-yilda yig'ilgan QQSdan 71,5 trillion so'm belgilangan 53,3 trillion so'mdan sezilarli darajada oshib ketdi. 2023-yilda O'zbekiston byudjetiga 63,8 trillion so'm miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari kutilmoqda. QQS to'lovchilar soni 2022-yilning o'zida 14,4 foizga o'sdi va dekabr oyida 171,9 mingtani tashkil qildi¹. 2023 yil 1 may holatiga ko'ra, QQS to'lovchilar soni 180 mingdan oshdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning muammosiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu mavzuni xorijiy olimlar va boshqalar tadqiq etilgan.

A.Vahobov va A.Jo‘raevlar (2009) qo‘shilgan qiymat solig‘ining mohiyatini quyidagicha izohlaydi: Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir².

¹ Снижение НДС в Узбекистане поможет увеличить поступления в бюджет и стимулирует бизнес-активность долгосрочно.<file:///C:/Users/Fiscal%20Institut/Desktop.htm>. 22.04.2023.

² Vahobov A., Jo'raev A. (2009) Solijalar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual::, – T.: “Shard” nashriyoti.



M.Yo'ldoshev va Y.Tursunovlarning (2000) fikricha, qo'shilgan qiymat solig'i deyilishiga sabab tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishda qatnashishning har bir bosqichida qiymatga qo'shiladigan qismidan soliq olinadi va sof daromadning bir qismini byudjetga olishning shakli bo'lib hisoblanadi³.

Sh.A.Toshmatov o'zining ilmiy ishlarida QQSga kengroq ta'rif berishga harakat qilgan: Qo'shilgan qiymat deganda, ashyoviy resurslar xarid bahosiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'shilgan, tovar va xizmatlarning bozorda sotilish narxiga kirgan ustama qiymat tushuniladi va tovar xarajatlari, naflilagini bozor tan olgan hamda ularning pul ekvivalenti berilganligini bildiradi. Tovar va xizmatlarga qo'shilgan qiymatning miqdorini aniqlash, bu tovar sotilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, qo'shilgan qiymat bu ishlab chiqarishning pirovard natijasidir⁴.

A.T.Muxanovning (2023) yozishicha, QQS - foydalanish yoki iste'mol qilish uchun sotiladigan ko'pgina tovar va xizmatlardan olinadigan iste'mol solig'i. U ishlab chiqarish va tarqatishning har bir bosqichida mahsulotning "qo'shilgan qiymati" dan undiriladi. "Qo'shilgan qiymat" mahsulot / xizmatga investitsiya qilish qiymati va iste'molchiga sotiladigan narx o'rtasidagi farqni anglatadi.

N.Z.Zotikovni (2019) takidlashicha, Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) - mahsulot, ish yoki xizmat tannarxining bir qismini ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida yaratiladigan va sotilganidan keyin byudjetga to'lanadigan qismini davlat byudjetiga olib qo'yish shakli. QQSni qo'llash natijasida tovar, ish yoki xizmatning yakuniy iste'molchisi sotuvchi solig'ini sotib olingan boyliklarning butun qiymati bo'yicha to'laydi. QQS bilvosita soliq bo'lib, uning yuki pirovardida savdogarlarga emas, balki yakuniy iste'molchilarga tushadi.

Yana bir manbada quyidagi fikrlar berilgan: Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) – bu Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hududida tovarlar yoki xizmatlarni sotish uchun to'lanadigan soliq. Soliq, barcha hollarda, oxir-oqibat, tovar yoki xizmatning yakuniy iste'molchisi tomonidan to'lanishi kerak. Ta'minot zanjiridagi har bir tomon (ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana sotuvchi) QQS yig'uvchisi vazifasini bajaradi⁵.

Gail Cole (2021) ilmiy ishlarida QQSni quyidagicha ta'riflaydi: Qo'shilgan qiymat solig'i (VAT-QQS) - tovarlar va xizmatlar yetkazib berish zanjiri bo'ylab harakatlanayotganda qo'shilgan qiymat bo'yicha hisoblangan keng iste'mol solig'i.

³ Yo'ldoshev M., Tursunov Y. (2000) Soliq huquqi.—Toshkent: «Moliya nashriyoti».

⁴ Toshmatov Sh. (2004) Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya, Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".

⁵ <https://www.revenue.ie/en/vat/what-is-vat/index.aspx>. Published: 09 February 2023.



J.Uedani (2011) yozishicha, QQS iste'mol solig'i hisoblanganligi sababli uning ideal bazasi – ya'ni jami yakuniy iste'mol xarajatlari biznes sikllari davomida bir muncha barqaror bo'lib, QQS bazasini ham barqarorligini nazarda tutadi, ammo amaliyotda, QQS daromadlari ba'zan YaIM yoki yakuniy iste'molga nisbatan ancha ta'sirchan hisoblanadi. Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishga qaratilgan soliq tizimining rivojlanish tarixida, qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etilishi XX asr ikkinchi yarmida ushbu yo'nalishdagi eng muhim kashfiyotlardan biri hisoblanadi.

F.Davletovni (2023) takidlashicha, Mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining o'sishiga ijobjiy ta'sir QQS stavkasining 15% dan 12%gacha pasayishi mamlakatda ishbilarmonlik muhitini o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi an'anaviy usullaridan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining soliq yukiga oid fikr va mulohazalari ilmiyamaliy jihatdan tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'shilgan qiymat solig'i - ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga, sotishgacha bo'lgan jarayonda har bir sikldan olinadigan bilvosita ko'p pog'anali soliqdir. Uning ob'ekti qo'shilgan qiymat, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki mahsulotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq mahsulot narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi - soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi. Juhon amaliyoti qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi haridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq summasi va yetkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlar uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma harajatlarga kiritilgan soliq summasi orasidagi farqni to'laydi. To'lanishi kerak bo'lgan soliq manfiy bo'lib chiqsa, ya'ni bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda qabul qilinganidek, byudjetdan boshqa summalar hisobiga qoplanadi.



Qo'shilgan qiymat solig'iga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlaridan soliq olinadi, biroq oraliqdagi haridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiy summadan qoplanadi. "Soliq krediti" sifatida tanish bo'lgan bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda soliq summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turtki bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilari:

- soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- norezidentlardan ya'ni xorijiy davlatlar kompaniyalaridan ish va xizmatlarni import qilayotgan yuridik shaxslar;
- tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;
- oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) yuridik shaxs;
- qurilish tashkilotlari – qurilish ishlarini moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalarini jalb etgan holda tanlov savdolari asosida amalga oshirilayotgan ob'ektlar bo'yicha.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zining o'rni bo'yicha byudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanila boshlangan vaqtdan xozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati byudjetining asosiy manbalaridan biriga aylandi. O'tgan davrlar ichida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka 2019 yilning 1 oktyabr oyigacha saqlanib qolindi. 2019 yil 1 oktyabrdan (Farmon, 2019) 15 foiz, 2023 yilning



yanvaridan (Qonun, 2022) esa 12 foizlik stavkaga tushirildi. Hozirgi vaqtida amaliyotda “nollik” stavka ham qo’llanilmoqda⁶.

1-jadval

Dunyo mamlakatlarida qo’shilgan qiymat solig‘i stavkalarining holati⁷

Qit'a	QQSning o‘rtacha foiz stavkasi	Yuqori foiz stavkasi	Past foiz stavkasi
Evropa	19,98	27,00	3,00
Amerika	16,33	23,00	10,00
Osiyo	10,47	15,00	5,00
Afrika	11,75	15,00	6,00
Avstraliya	10,00	10,00	10,00

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki qo’shilgan qiymat solig‘ining eng yuqori stavkasi o‘rnatilgan davlatlar Yevropa qit’asidagi Vengriya davlati (27 %), Daniya, Norvegiya, Shvesiya davlatlarida (25 %) hissasiga to‘g‘ri kelsa, eng past stavka Jersi oroli (3 %)ga tegishli.

Markaziy osiyo davlatlaridan Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikalarida qo’shilgan qiymat solig‘i 15 foizlik stavkada, qolgan qo’shni davlatlarda 12 foizni tashkil etadi⁸.

Umuman soliqlar va majburiy to‘lovlar stavkalarini pasaytirilishi, ularni undirish mexanizmlarining takomillashishi amaldagi soliq yukining kamayishiga va byudjetga to‘lovlarining o‘z vaqtida kelib tushishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda yagona soliq to‘lovi to‘laydigan kichik korxona va mikrofirmalarni soliqqa tortish jarayonida qo’shilgan qiymat solig‘ini qo’llash, hisoblash va undirish tartibidagi ayrim muammolarning mavjudligi, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kichik korxonalarining ixtiyoriy ravishda QQS to‘lashga o’tishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

QQSni to‘lashga o’tish uchun yuridik shaxslar hisobot davri (choragi) boshlanishidan kamida bir oy avval, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa –

⁶ Komilov M.M. (2020) Qo’shilgan qiymat solig‘i ma’murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash omilidir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5.

⁷ Джалилов Р.Х. (2022) Нормативно-правовая база по порядку организаций камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103

⁸ Abdullaev A.B. (2020) Soliq to‘lovlarini hisobi va tahlilini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent. 2020.69 bet.



faoliyat ko‘rsata boshlagunga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

So‘nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat byudjetining daromadlari tarkibida egri soliqlar ulushining ancha o‘sayotganini hamda to‘g‘ri soliqlar salmog‘ining kamayayotganini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiliginin soddalashtirish borasida doimiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga yaqqol misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292 son qarorini keltirish mumkin. Ushbu qaror “Yo‘l xaritasi”ning V-bo‘limida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiliginin soddalashtirish belgilangan bo‘lib, quyidagilar keltirilgan:

qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsientini qo‘llash amaliyoti taqiqlanadi;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasining amal qilishini to‘xtatib turish tartibi bekor qilinadi (amalga oshirilayotgan bitimlar (operatsiyalar) xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga nomuvofiq bo‘lgan holatlar bundan mustasno).

Mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkasi yildan yilga pasayib bormoq, bu esa tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashdan dalolatdir (2-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbilari to‘g‘risida”gi farmonniga asosan 2019 yilning 1 oktyabrdan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-812-son Qonuniga asosan 2023 yil 2-yanvardan QQS stavkasi 12 foiz etib belgilangan.



2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘ining 2018-2023
yillardagi o‘zgarish dinamikasi⁹**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi, foizda	20	20/15	15	15	15	12

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida qo‘shilgan qiymat solig‘ining ulushi yildan yilga kamayishiga qaramasdan, hali ham sezilarli (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari manbaida 2020-2022 yillarda qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘sish dinamikasi¹⁰, mlrd. so‘mda

Ko‘rsatkichlar	2020 yil	jamiga nisbatan % da	2021 yil	jamiga nisbatan % da	2022 yil	jamiga nisbatan % da
Davlat byudjeti daromadlari	132938	100	164681	100	202043	100
Bilvosita soliqlar – jami	46 428	34,9	56 292	34,2	71 390	35,3
Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)	31 177	23,5	38 439	23,3	52 189	25,8
Aksiz solig‘i	11 697	8,8	13 088	7,9	13 455	6,7
Bojxona boji	3 554	2,7	4 765	2,9	5 746	2,8

3-jadval ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, 2022 yil holatiga, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bo‘yicha tushumlar 2022 yilda 52,2 trln. so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 13,8 trln so‘mga yoki 35,8%ga oshdi. 2022 yilda QQS bo‘yicha davlat byudjetiga soliq organlari tomonidan 32,8 trln so‘m (2021 yilga nisbatan 28,3%ga ko‘proq), bojxona organlari tomonidan 38,7 trln so‘m (2021 yilga nisbatan 41,8%ga ko‘proq) undirildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va o‘ndirish mexanizmidagi muammolar:

⁹ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy <http://www.stat.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

¹⁰ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy <http://www.stat.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



- soliqqa tortish tizimining murakkabligi;
 - soliqqa tortish bazasini aniqlashdagi noaniqliklar;
 - soliqdan qochishdagi muammolar;
 - soliqqa tortish bilan bog‘liq ma’muriyat chiligidagi yuqori bosim va byurokratik to’siqlarning mavjudligi;
 - soliq risklari va nizolar darajasining yuqoriligi;
 - tadbirkorlarning raqobatbordoshligining pastligi va boshqalar.
- Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar va uning yechimlari:
- qo‘shilgan qiymat solig‘i tizimini soddalashtirish;
 - qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashni va tushuntirishlarni unifikatsiyalash;
 - qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan qochish ustidan nazoratni kuchaytirish va raqamlashtirish;
 - kadrlar malaksini zamon talablariga moslashtirish;
 - qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va undirish tizimini soddalashtirish asosida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab quvvatlash.

Xulosa

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash mexanizmi ichki va ayniqlsa tashqi soliqqa tortishda – mo‘ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraq fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Biroq bunda asosiy muammo - qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri –adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to‘lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to‘lovchilarining soliq yuki ortmoqda. Shu tariqa qo‘shilgan qiymat solig‘ini birxillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo‘nalish tusiga ega bo‘ladi. Mazkur soliq davlatga juda qulay va “arzon” tushadi. Chunki korxona va tashkilotlar foyda olishi yoki olmaslididan qat’iy nazar tovarlar sotilishi bilan byudjetga kelib tushadi, ya’ni byudjet daromadlarining uzluksizligini ta’minlaydi.

Soliq ma’muriyat chiligida o‘tkazilgan iqtisodiy islohatlarga qaramasdan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va undirish tizimi murakkabligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida



belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292 son qarorining “Yo‘l xaritasi”ning V-bo‘limida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatçiligini soddalashtirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va o‘ndirish mexanizmidagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i tizimini soddalashtirish;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashni va tushuntirishlarni unifikatsiyalash;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan qochish ustidan nazoratni kuchaytirish va raqamlashtirish;
- kadrler malaksini zamon talablariga moslashtirish;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va undirish tizimini soddalashtirish asosida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdullaev A.B. (2020) Soliq to‘lovleri hisobi va tahlilini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent. 2020.69 bet.
2. Alimardanov M.I., Abdullaev B.N. (2015) Qo‘shilgan qiymat solig‘ini takomillashtirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr.
3. Бортникова И.М. (2018) Налоги и налогообложение: учебное пособие / сост.: Донской ГАУ. – Персиановский : Донской ГАУ, 202 с.
4. Джалилов Р.Х. (2022) Нормативно-правовая база по порядку организаций камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103
5. Komilov M.M. (2020) Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash omildir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5.
6. Murojaatnama (2022) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 20 dekabr 2022 yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
7. Niyazmetov I.M., Safarov U.A., Radjapov X.J. (2021) Qo‘shilgan qiymat solig‘i mexanizmini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. 2сон.



8. Пансков В.Г. (2015) Изменение порядка зачисления средств НДС: введение НДСчетов / В.Г.Пансков // Вестник АКСОР. № 3 (35). – С. 17-18
9. Tashmuradova B.E. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.
10. Gail Cole (2021) Value-added tax: What is VAT and who has to pay it? Jul 31, 2023. <https://www.avalara.com/blog/en/north-america/2021/07/what-is-vat.html>.
11. James K. (2011) "Exploring the Origin and Global Rise of VAT," Manash University, Melbourne.
12. Vahobov A., Jo'raev A. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: – T.:“Sharq” nashriyoti.
13. Davletov F. (2023) QQSni kamayishi O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini faollashtiradi. <https://review.uz/oz/post/snijenie-nds-aktiviziruet-biznes-klimat-vuzbekistane.7.09.2023>.
14. Зотиков Н.З. (2019) Добавленная стоимость: практика обложения // Вестник Евразийской науки, №3, <https://esj.today/PDF/73ECVN319.pdf>.
15. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. (2000) Soliq huquqi.—Toshkent: «Moliya nashriyoti.
16. Mirziyoev Sh.M. (2023) Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.18 avgust.
17. Муханов А.Т. (2023) Основное понятие налога на добавленную стоимость, его особенности и характеристика. Международный научный журнал. Вестник науки. № 1.
18. Смирнова Е.В. (2018) Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1.
19. Toshmatov Sh. (2004) Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya, Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".
20. Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2018) "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-son.



21. Farmon (2019) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbilari to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-5837-son, 26.09.2019 y.).
22. Qonun (2022) O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun o‘zbekiston respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuni, 30.12.2022 y.
23. Qaror (2023) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan
24. 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292 son.
25. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
26. <http://www.mysoliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
27. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi sayti
28. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi sayti